

**ТАРИХИЙ АСАРЛАРДА УМУМИНСОНИЙ ҒОЯЛАР****МИЛЛИЙ РУҲИЯТ ТАЛҚИНИ****Matmusayeva Nadira Mamirovna**

Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: nodiraxonim1963@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek adabiyotda milliy adabiyot negizida umuminsoniy g'oyalarning talqin etilishi badiiy tafakkurni boyitishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Sh.Isaxonovanning mustaqillik yillarida yaratgan “Chingizxon tuzog'iga tushgan malika”, “Bibixonim”, “Gavharshod begim”, “Nodirai davron” tarixiy romanlari bugungi kun uchun ahamiyatini zarracha kamaytirmagan juda ko'plab ibratli g'oyalar, etuk fikrlar bilan yo'g'rilganligi fikrimizning isboti bo'la oladi. Biz bu kitoblarning ma'rifiy-estetik tomonlarini qadrlagan holda, bu asarlarning foydali ekanini, g'oyalari umumbashariy qadriyatlar ekanini e'tirof etamiz.

Faylasuflarning ta'kidlashicha, umuminsoniylik - vatansizlik (kosmopolitizm) bo'lmagani singari, milliylik ham - milliy qobiqqa o'ralish, milliy mahdudlik degani emas. Eng muhimi - falsafadagi milliylik umuminsoniylikni rad qilish evaziga emas, balki uni ijodiy boyitish orqali rivojlanib boradi. Har bir sohada falsafiy qonuniyatlar amal qilishini e'tiborga olsak, o'z-o'zidan, badiiy asarlarda umuminsoniylik va milliylik jihatlarining aks etishi adabiyotshunoslikning muhim nazariy masalalaridan biri ekanligi ayon bo'ladi. Maqolada “Chingizxon tuzog'iga tushgan malika”, “Bibixonim”, “Gavharshod begim”, “Nodirai davron” tarixiy romanlarida ana shunday serqirra g'oya va tushunchalarning badiiy asarga singdirib yuborilishi va yozuvchining xayol prizmasidan o'tkazilgan voqelik tasvirida ma'naviy-axloqiy mezonlarning badiiy talqin etilishidagi yozuvchining uslubiy mahorat qirralari badiiy dalillar asosida berilgan.

Kalit so'zlar: umuminsoniylik, milliylik jihatlar, badiiy talqin, retrospektiv usul, badiiy tasvir, tarixiy-biografik roman



Abstract: In Uzbek literature, the interpretation of universal ideas on the basis of national literature is important in enriching artistic thinking. From this point of view, the historical novels of Sh. Isakhonova created in the years of independence, "Princess Trapped by Genghis Khan", "Bibikhanim", "Gavharshad Begim", "Nodirai Davron", are many exemplary ideas that have not diminished their importance for today. that it is guided by mature thoughts can be a proof of our opinion. Appreciating the educational and aesthetic aspects of these books, we recognize that these works are useful and that their ideas are universal values.

Philosophers say that universality does not mean statelessness (cosmopolitanism), so nationality does not mean wrapping up in a national shell, national limitation. The most important thing is that nationalism in philosophy develops not at the cost of rejecting universality, but by creatively enriching it. If we take into account that philosophical laws apply in every field, it becomes clear that the reflection of aspects of universality and nationality in artistic works is one of the important theoretical issues of literary studies. In the article, in the historical novels "Princess Trapped by Genghis Khan", "Bibikhanim", "Gavharshad Begim", "Nodirai Davron", such brilliant ideas and concepts are absorbed into the artistic work, and in the depiction of reality through the prism of the writer's imagination, spiritual- The stylistic skills of the writer in the artistic interpretation of moral criteria are given on the basis of artistic evidence.

Key words: universality, national aspects, artistic interpretation, retrospective method, artistic image, historical-biographical novel

Аннотация: В узбекской литературе важное значение для обогащения художественного мышления имеет интерпретация общечеловеческих идей на основе национальной литературы. С этой точки зрения исторические романы Ш.Исахоновой, созданные в годы независимости, «Принцесса в ловушке Чингисхана», «Бибиханим», «Гавхаршад бегим», «Нодираи даврон», представляют собой множество образцовых идей, которых не стало меньше. их значение для сегодняшнего дня, что оно руководствуется зрелыми мыслями, может быть



доказательством нашего мнения. Оценивая образовательную и эстетическую стороны этих книг, мы признаем, что эти произведения полезны и что их идеи являются общечеловеческими ценностями.

Философы говорят, что универсальность не означает безгражданства (космополитизма), поэтому natsionalnaya не означает завертывание в natsionalnuyu оболочку, natsionalnuyu ограниченность. Самое главное, что natsionalizm в философии развивается не за счет отрицания универсальности, а за счет ее творческого обогащения. Если принять во внимание, что философские законы действуют во всех областях, то становится ясно, что отражение аспектов универсальности и народности в художественных произведениях является одним из важных теоретических вопросов литературоведения. В статье в исторических романах «Принцесса в ловушке Чингисхана», «Бибиханым», «Гавхаршад бегим», «Нодираи Даврон» в художественное произведение вбираются столь блестящие идеи и концепции, а в изображении действительности через призму призма воображения писателя, духовная- Стилистические умения писателя в художественной интерпретatsii нравственных критериев даны на основе художественных свидетельств.

Ключевые слова: универсальность, natsionalnyy aspekt, художественная интерпретatsiya, retrospektivnyy metod, художественный образ, историко-биографический роман.

Tabiiyki, badiiy adabiyotda milliy adabiyot negizida umuminsoniy g'oyalarning talqin etilishi badiiy tafakkurni boyitishda muhim ahamiyatga ega. O'tkir Hoshimov qisqa va lo'nda ta'riflaganidek, “Badiiy ijod shunday daraxtki, shoxida umuminsoniy mevalar etiladi, ildizi esa milliy zaminda yotadi”[Ношимов, 1998: 91].

Sh.Isaxonova romanlarida ifodalangan voqelikning badiiy talqini xolislik va mantiqiy yondashuv tamoyillariga asoslangan bo'lib, adiba tarixiy shaxslar taqdirini tasvirlashda mavjud tarixiy-ilmiy, adabiy manbalardagi turlicha talqindagi ma'lumotlarning “oltin o'rtasi”ni topishga harakat qiladi. Xossatan, adiba asarlarida milliy



kolorit negizida badiiy tafakkur prizmasidan o'tkazilgan umuminsoniy g'oyalar talqinini kuzatish mumkin. Har bir sohada falsafiy qonuniyatlar amal qilishini e'tiboga olsak, badiiy asarlarda umuminsoniylik va milliylik jihatlarining aks etishi adabiyotshunoslikning muhim nazariy masalalaridan biri ekanligi ayon bo'ldi.

U.To'ychiev milliylik va umuminsoniylikni “asarning badiiy-estetik ta'sirchanligi maromlaridan biri” sifatida ko'rsatadi. (Biz bu o'rinda *marom* so'zi atama sifatida ommalashmaganligini e'tiborga olib, *ta'sirchanlik sharti* atamasini qo'llashni ma'qullaymiz.) Olimning ta'kidlashicha, “adabiyotda milliylik uchta masala bilan aloqador, biri milliy o'ziga xoslik, boshqasi umuminsoniylikdir, oxirgisi milliylik va umuminsoniylikning o'zaro munosabatidir” ”[Тўйчиев, 2011: 420-449].

Falsafiy nuqtayi nazardan umuminsoniy g'oyalar negizida ideal-qadriyatlar yotadi. Faylasuf Q.Nazarov milliy qadriyatlar tizimini quyidagicha tasniflaydi:

1. “Millatning genofondi, tabiiy betakrorligi, o'ziga xosligi, tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi;
2. Millat tarixi, o'tmishi, kelajagi va ma'naviy merosi;
3. Milliy hudud, moddiy va madaniy yashash sharoitlari, iqtisodiy asos va ijtimoiy ustqurma bilan bog'liq jihatlar;
4. Urf-odatlar, an'analar, marosimlar, turmush tarzi va boshqalardagi milliylik, ular bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar;
5. Milliy til, milliy madaniyat va ma'naviyat, millat ong va milliy ruh, milliy tuyg'ular va g'oyalar” ”[Назаров., 2004: 41].

Ana shunday serqirra g'oya va tushunchalarning badiiy asarga singdirib yuborilishi va badiiy talqin etilishida, ya'ni yozuvchining xayol prizmasidan o'tkazilgan voqelik tasvirida ma'naviy-axloqiy mezonlar ko'prik vazifasini o'taydi. Borliq yaxlitligi badiiy asarda badiiy olam yaxlitligi sifatida jamlanadi. M.M.Girshman “mustaqil badiiy yaxlitlik maqomiga ega bo'lgan asarda uch xil - *umuminsoniy, konkret-tarixiy, individual-shaxsiy* mazmun plani bo'lishi kerak”[Гиршман, 2007:33].ligini ta'kidlaydi. Masalan, Sh.Isaxonovanning “Bibixonim” romanida Shod Mulkning shaxsiyatidagi salbiy xususiyatlar voqealar rivojini Amur Temur vasiyatiga-da xiyonat qilish darajasigacha olib



boradi. Bu o'rinda yuqoridagi uch jihatning bir nuqtada namoyon bo'lishi kuzatiladi. Ya'ni, konkret-tarixiy voqeada individual shaxs xatti-harakati orqali umuminsoniy qadriyatlarning toptalishi tasviri badiiy yaxlitlikni yuzaga keltirgan. Tarixiy voqelikning bu manzarasi zamonlararo ko'prik vazifasini o'taganligini ko'rish mumkin.

O'zbek adabiyotida nisbatan keyin shakllangan bo'lishiga qaramay, qator romanlarimiz nasrning badiiy tasvir ko'lamdorligini isboti sifatida keng qamrovli janr ekanligi, ham ijtimoiy masalalarni, ham inson ruhiyati sarhadlarini, o'zaro munosabatlar rang-barangligini aks ettirish imkoniyatlari bilan xarakterlidir. Mustaqillik davri romanlaridagi poetik izlanishlar, yangilanib, tobora rivojlanib borayotgan bugungi kunda jahon miqyosida yuz berayotgan evrilishlar badiiy asarlarning mazmun-mohiyati va shakli u shamoyiliga shu qadar ta'sir ko'rsatdiki, shakliiy va uslubiy izlanishlar, badiiyat jilolanishlarini idrok etish jarayoni tamoman o'zgarib ketdi, mavjud qoliplardan chekinildi. Xususan, nasriy asarlarda poetik teranlik, ichki kechinma va ziddiyatlar, olam va odam munosabati borasidagi mushohadalar dadil badiiy talqin qilina boshladi.

Adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat aytganiday, “Mustaqillik yuz bergandan keyingi o'zbek nasri eng samarali izlanishlar jarayonini boshdan kechirayotir. Yangi avlod yozuvchilari yo'q yerdan yoki butunlay Yevropa adabiyoti zaminida paydo bo'ldi, deya olmayman. Aksincha, ularning ijodi o'zbek nasri zaminida uzoq yillardan buyon kechayotgan ijobiy o'zgarishlarning yorqin namunasi, mantiqiy davomi, ko'ngilni umidlantiradigan bir bosqichdir” ”[Pahmat, 2013: 121].

Mana shu jarayonda jahon adabiyoti tendensiyalariga qaytib, umuminsoniy qadriyatlarning yorqin bo'yoqlardagi tasviri hamda milliy ruhiyat talqini ham ayricha, ham bir-biriga uyg'un tarzda aks eta boshladi. Ayniqsa, badiiy asarning milliyligi uning zaruriy shartlaridan biridir. Shu bois milliylik qanchalik aniq va chuqur aks ettirilgan bo'lsa, san'at asari badiiy jihatdan shu qadar yetuk bo'lishi tayin. Sh.Isaxonovanning tarixiy romanlarida ham milliylik ustuvor bo'lib, o'quvchi undagi kechinmalar, xatti-harakatlar, o'zaro munosabatlarning faqat o'zbek xalqigagina xos ekanligini his qilib turadi.

Yozuvchi asarlarida, xususan, “Chingizxon tuzog'iga tushgan malika”, “Bibixonim”, “Gavharshod begim”, “Nodirai davron” romanlarining har birida milliy



mentalitetga xos dunyoqarash, xarakterlar talqinidagi o'zbekona o'ziga xosliklar, monolog, dialog va ichki nutq vositalari orqali ochib berilgan qahramonlarning ichki va tashqi qiyofalari tasvirida ham milliy ruh ufurib turadi.

Sh.Isaxonova voqelikdagi ziddiyatlar fonida milliy mentalitetimizdan kelib chiqib, ota-o'g'il, ona- qiz, ota- qiz, ona o'g'il, opa- uka, qaynona kelin, qaynota- kelin,er-xotin munosabatlaridagi nozik chizgilarni ayollarga xos ziyraklik bilan tasvirlaydi. Jumladan, “Bibixonim”romani qahramonlaridan biri Xonzoda begim turmush o'rtog'i Mironshoh Mirzodan oddiy bir ayol sifatida ko'rgan jabrlariga bardosh beradi, lekin xojasining dushmanlar bilan til biriktirib, o'z otasi Amir Temur hazratlariga qilayotgan xiyonatiga ko'z yumib turolmaydi. Xuddi mana shu o'rinda ayolning qaynotaga bo'lgan chuqur hurmati uning Vatanga, el- yuurtga sadoqati bilan uyg'unlashib, umuminsoniy fazilatlar darajasiga ko'tariladi:

Bibixonim baytlarni o'qirkan, uning mazmunida yanglishmadimmi, degan hadikda qayta- qayta takrorladi, ko'nglini xotirjam etuvchi jumla topolmay, afsus bilan bosh chayqadi.Buni Sohibqironga yetkazishni ham yetkazmaslikni ham dahshatini his etib, eti junjikdi. Chuqur-chuqur uh tortarkan, Xonzoda begimga yalinchoq bir nigoh bilan termildi.

- Xonzodam, bul jur'atning oqibatini o'yladingizmu?

Bibixonim Xonzoda begimning ko'zlari cho'chiganday ilkis ochilganini ko'rdi.

- Bilurman, bibim... - Xonzoda begimning yuzlari battar qizardi. - Biroq siz buni zinhor alamg'a, o'ch olmoq uchun qilinayotg'an qasdga yo'ymang! Padari buzrukvori sha'nini toptamoqqa jur'at qilg'an, ul nobakor dushmanning bul qilmishini jazolamoq o'rnig'a tegirmonig'a suv quyayotg'an ul telba o'g'lonning nokasligi birlan, tanamg'a yetkazilgan bul jarohatlar orasinda osmon birla yercha farq bor!

Bibixonim hayajondan quruqshay boshlagan lablarini nadomat bilan tishladi.

- Biroq... farzandimg'a aylang'an ul shahzodai juvonbaxtning bul gustohlig'i o'lim birlan barobarlig'ini bilg'anim holda, uni hazrati oliylarig'a bildirmakka jur'atim yetmas deb, qo'rqaman, Xonzodam...



- *Bibim... uning uvol-savobi mening bo'ynimdadir, zero, so'ylamaslik ham xatolig'dir...* ”[Исаханова, 2022: 251-252].

Binobarin, bu o'rinda qaynona kelin Bibixonim va Xonzoda begim munosabatlaridagi qalban yaqinlik, o'zaro izzat-hurmat, bir-birini tushunishga intilish bilan Bibixonimdagi onalik hissi va Xonzoda begimdagi millat taqdiri uchun kuyunchaklik o'rtasidagi fikriy-to'qnashuv tasviri yozuvchini o'ziga xos badiiy so'z san'ati yaratolganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, “millatning o'tmishidan uning bugungi ma'naviy qiyofasi ildizlarini qidirish” (Q.Yo'ldoshev) istagi ko'plab tarixiy romanlarning yaratilishiga turtki berdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Odatda, tarixiy shaxslar fonida ularning atrofidagi odamlar, turli tabaqa vakillarining hayot tarzi, o'y-kechinmalari, hayot qiyinchiliklarini boshidan kechirayotgan ko'plab kishilarning tabiati aks ettiriladi va mana shu jarayonlar milliy koloritni yuzaga keltiradi. O'tkir Hoshimov yozganidek, “Milliy kolorit shunchaki “ekzotika” emas, xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, fe'l-atvori, boringki, qismatini ko'rsatuvchi vositadir” ”[Ношимов, 1998: 91].

Zero, milliy adabiyotning asosini xalqning hayot tarzi, dunyoni anglash tamoyillari, o'y-fikrlari olami, kundalik turmush tarzi, o'zaro muomala-munosabat madaniyati, kasb-kori, tevarak-atrofidagi makonning geografik va iqlim xususiyatlari, eng asosiysi, milliy tilning boyligi-yu jozibadorligi kabi qator omillar tashkil qiladi. U.To'ychiev ta'kidlaganidek, “obrazli ifodalar, badiiy vositalar ham har bir xalqning xarakteri, hayot usuli, geografik sharoiti, ijtimoiy muhiti, milliy-adabiy an'analari, estetik didi, iqtisodiy shug'ullanishiga bog'liq holda kelib chiqadi” ”[Тўйчиев, 2011: 173].

H.Karimov bunday omillarni inkor etmagan holda, “milliylik, birinchi navbatda, ruhiyatda o'z mujassamini topadi”, deb hisoblaydi. “Milliylikni belgilaydigan boshqa xususiyatlarning barchasi unga bog'liq, undan kelib chiqadi. Ruhiyat esa insonning tabiatini va o'zligini belgilaydigan ilohiy kuch, ma'naviy oziqdir. Ruhiyati kuchli odam o'z qiyofasidan, o'z yo'lidan, ya'ni to'g'ri yo'ldan toymaydi, e'tiqodidan voz kechmaydi” [Каримов, 2010: 91].

Sh.Isaxonovanning badiiy talqinida Bibixonim, Gavharshod begim, Nodira begim kabi tarixiy ayol shaxslar ham ruhiyati baland inson sifatida iroda kuchi, boy ma'naviy



olami, el-ulus g'amida chekkan zahmatlari uchun “mahdi ulyo”, “bosh malika” rutbalariga munosibligi o'z ifodasini topgan.

Ming yillik boy kechmishlarga ega bo'lgan Vatanimiz va millat tarixi, buyuk ajdodlarimiz hayoti va murakkab taqdirlarni yoritishda bugungi kitobxon nuqtayi nazaridan yondashib, umuminsoniy va etnomadaniy qadriyatlarni bosh estetik mezon sifatida qarash bugungi davr talabidir. Zero, yozuvchi qaysi davrni qalamga olmasin, tasvirlanayotgan voqeliklar zamon va makon, voqelik va shaxs dialektikasi hamda ijodkor shaxsining tafakkur prizmasidan o'tibgina, badiiy-estetik hodisaga aylanadi.

I.G'ofurov “Bibixonim” romaniga yozgan so'ngso'zida asarning umuminsoniy g'oyasi yorug'lik va ezgulik hamisha g'olib ekanligiga ishora qiluvchi ana shunday voqelar bilan yakunlanishiga alohida urg'u beradi: “Ulug' el tuzgan odamning qutlug' vasiyatini toptash, mulklarini ouoqosti qilish hech qachon uaxshilikka olib bormaudi. Avlodlar, nasllarga ham hech qachon sharaf va obro' keltirmaydi. Adibaning yangi tarixiy asardan kuzatgan g'oyasi va shu g'oyadan kelib chiqadigan ulug' ibrat mana shunda. Ammo bu el yashovchan va u tarix yaratishga qobil. U tarix saboqlaridan ibrat chiqarib oladi. Shu g'oya va ibratning isboti o'laroq uzoqdan qon maydonlari ortidan Shohruh va Ulug'bek siymolari bulutlar ortidan ko'ringan quyoshday umid uyg'otib yorug'lik va tavfiq ustuvor ekanligiga ishonch uyg'otib gavdalandi. El o'z xaloskorini tug'adi” [G'afurov, 2014:479].

Ma'lumki, tush motivi xalq og'zaki ijodi namunalarida ko'p uchraydi. Ayrim ishqiy-romanik dostonlarda sevgi sarguzashtlari bir-birlarini tushda ko'rish orqali boshlanadi. Tush badiiy asarda ruhiy kechinmalarni oydinlashtirish vositalaridan biri bo'lib, qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy holati, orzu-xayol va kechinmalarini psixologik asoslashga xizmat qiladi. Adibaning mahorati shundaki, tush detali orqali o'zbek milliy mentalitetiga xos bo'lgan qarindosh-urug'chilik rishtalarining uzviyligini Boysung'ur mirzo avlodlari ruhining bir joyda jamlanishi orqali tasvirlar ekan, ular orasida Abdullatif mirzoning ko'rinmasligi fojeaning dahshatini yorqinroq tasavvur qilishga xizmat qiladi.



Polvon kelbatli Boysung'ir mirzo har doimgiday ustalar ishiga aralashib, bargohning shiftiga naqsh solar, katta o'g'li Alouddavla mirzo jilmayganicha, qiblagohining ishini kuzatardi. Uning kichik o'g'lonlari Sulton Muhammad mirzo bilan Abulqosim Bobur mirzolar chohortoqning boloxonasida sozandalarning kuylaridan sel bo'lganlaricha, shohmot o'ynashardi. Bu davrada yolg'iz Abdulatif mirzogina ko'rinmas, uning o'g'li Abdurazzoq mirzo davra aylanib, qiblagohini izlardi (ta'kid bizniki – M.N). To'rdagi ko'shkda esa savlat to'kib, xoqoni said Shohrux mirzo o'tirar, o'g'lonlari Ulug'bek mirzo, Ibrohim Sulton mirzo, Jo'kiy mirzo, Suyurg'atmish mirzolar o'ng tarafida, nabiralari esa chap tomonidan joy olishgan edi”[Исaxonova, 2023:223].

Shu tariqa, yozuvchi Shahodat Isaxonova “Bibixonim” va «Gavharshod begim» romanlaridagi Bibixonim, Gavharshod begim, Shodi Mulk, Durjahon begim (uning asl ismi Husn Nigor begim edi) kabi malikalar orasida qora chiziq kabi tortilgan Abdullatif Mirzoning fe'li-sajiyasidagi illatlarning tub ildizlarini ochib berishga harakat qilgan.

Millatimizning serqatlam va rang-barang hodisalarga to'la tarixi, xalq hayotida muayyan iz qoldirgan tarixiy shaxslarning hayotini o'rganish o'zligimizni anglash, milliy-madaniy qadriyatlarimizning teran ildizlarini idrok etish imkonini беради. Шундай экан, тарихий романлар мазмун- моҳиятига сингдирилган умуминсоний ғоялар ва миллий руҳиятимизга хос қадриятлардан фалсафий, маънавий- ахлоқий хулосалар чиқариш ва ҳаётга татбиқ этиш авлодлар келажаги учун хизмат қилади.

Xullas, tarixiy romanlarning o'ziga xos xususiyatlari, unda hayot haqiqatini badiiy talqin qilish muammolari, badiiy-estetik xususiyatlari, tarixiy qahramonlar tasviridagi milliy va umuminsoniy jihatlarning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Isaxonova Shahodat.Bibixonim.Turon malikalari (tarixiy roman)/ – T.: “Ma’rifat bitiklari”, 2022. – 480 b.
- 2.Isaxonova Shahodat. Gavharshod begim. T.: Ma’rifat bitiklari, 2023. – 320 b.
- 3.Isaxonova Shahodat. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan



- malika. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2018. –480 b.
- 4.Isaxonova Shahodat.Nodirai davron yoxud amirning tavqi la'nat to'ni (tarixiy roman)/ – Toshkent: “Ma'rifat bitiklari” nashriyoti. 2021. – 360 b.
- 5.Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари талабалар учун ўқув қўлланмаси).–Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 420-449.
- Ношимов Ў. Дафтар хошиясидаги битиклар. Т.: Шарқ, 1998. – Б. 91
- 6.Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). –Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти – 2004. – Б. 41.
- 7.Гиршман М. Литературное произведение, Теория художественной целостности. – Москва, 2007. – С.33.
- 8.Ношимов Ў. Бадий асарда миллий колорит // <https://muxlis.uz/uz/article/badiiy-asarda-milliy-kolorit>
- 9.Раҳимжон Раҳмат. Янги авлод овози // “Шарқ юлдузи” журнали, 2013, 2-сон. – Б. 121
- 10.Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари (талабалар учун ўқув қўлланмаси) – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 173.
- 11.Каримов Н. Истиқлол даври адабиёти.: дарслик / Н. Каримов; ЎЗР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Низомий номидаги Тошк. Давлат педагогика ун-ти. – Т.: Yangi nashr, 2010.
- 12.Ғафуров И.Ўртада Бибихоним турар эди... // “Турон маликаси” романига сўнгсўз. Т.: Kamalak-Press, 2014.
- 13.Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Т.: Фан, 2011.